2026-YIL–MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

NAVOIY KIMYOGARI

№ 20 (2840)

1967-yil 4-martdan chiqa boshlagan • № 20 (2840) • 7-noyabr 2026-yil

Tibbiyot xodimlari kuni

FIDOYI INSONLAR E’ZOZI

Mamlakatimizda fuqarolarning sog‘lig‘ini tiklash, aholining malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va ijtimoiy himoyaga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Tibbiy xizmat sifatini yanada yaxshilash, zarur tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish hamda sog‘lom avlodni tarbiyalash sohaning bosh mezoniga aylandi.



Bajarilayotgan salmoqli ishlar va erishilayotgan yutuqlar zamirida, shubhasiz, soha fidoyilarining kecha-yu kunduz qilgan fidokorona mehnati yotadi. Shu bois, shifokorlarni har taraflama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash va munosib mehnat sharoitlarini yaratishga doimiy e’tibor qaratilayapti.

O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi «Tibbiyot xodimlari kuni» sifatida keng nishonlab kelinadi.

Ayni paytda Tibbiy-sanitariya qismida 237 nafar xodim, jumladan, 32 malakali shifokor va 130 o‘rta tibbiyot egalari kimyogarlar sog‘lig‘ini muhofaza qilishda munosib hissa qo‘shayapti. Jamoaning professional salohiyati ham yuqori darajada shakllangan. Shifokorlarning 18 nafari malaka toifasiga ega bo‘lib, shundan 10 oliy, 5 nafari 1-toifa va 3 nafari 2-toifali mutaxassislardir. O‘rta tibbiyot xodimlarining 81 nafari, ya’ni ularning 48 oliy, 22 nafari 1-toifa va 11 nafari 2-toifa malakasiga ega.

Muassasada statsionar va ambulator xizmatlar sifati muntazam oshirilayapti. Joriy yilning 9 oyi davomida poliklinikaga jami 104 926 marotaba qatnov amalga oshirildi. Statsionar bo‘limida esa 1 373 nafar bemor sog‘lomlashtirilib, uylariga kuzatildi. Shuningdek, hisobot davrida 2 214 ta muvaffaqiyatli jarrohlik operatsiyalari bajarildi.

El sog‘lig‘ini mustahkamlashda malakali shifokorlarimiz Zebo Abdullayeva, Erkin Rahimov, Mavjuda Kenjayeva, Mehriniso Xudoyberdiyeva, Ixtiyor Razzoqov, Aziz Hojiyev, Guli Salimova hamda hamshira Mehri Jumayeva, Mavjuda G‘aniyeva, Fazilat Zaripova, Zarifa Sharipova, Madina Nurimova, Feruza Ahrorova, Yulduz Narziyeva, Inobat Raupova, Feruza Nosirova, Hilola Qayumova, Mehriniso Sharipova kabilar mas’uliyat va sadoqat timsoliga aylangan.

Sog‘liqni saqlash vazirligi qarorlariga asosan, sanoat korxonasi xodimlarini muntazam davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va kasalliklarni ilk bosqichlarda aniqlash ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Yil davomida profilaktik ko‘rikdan o‘tishi lozim bo‘lgan 5 500 xodimdan 9 oy holatiga ko‘ra 4 462 nafari qamrab olindi va tekshiruvlar davomida 560 ta umumiy kasallik aniqlandi. Quvonarlisi, hisobot davrida kasb kasalliklari umuman qayd etilmadi. Dispanser nazoratidagi xodimlarni sog‘lomlashtirish borasida ham salmoqli natijalarga erishildi. Hisobda turganlar 2 588 nafarni tashkil etib, shu davr mobaynida 400 nafar xodim yangi nazoratga olindi. Zarur davolash va sog‘lomlashtirish choralari natijasida 413 kishi «D» nazoratidan chiqarildi, shundan 308 kishi to‘liq tuzalganligi munosabati bilan ro‘yxatdan o‘chirildi. Hisobot davri oxirida nazoratda turganlar soni 2 575 nafardan iborat. Shuningdek, korxonamizda xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish, xususan, tug‘ish yoshidagi ayollar sog‘lig‘ini asrash doimiy e’tiborda. Jami 3 370 ayol mehnat qilayotgan bo‘lsa, shundan 2 536 nafari tug‘ish yoshidagilarni tashkil etadi. Ular to‘liq profilaktik ko‘rikdan o‘tkazildi. Tekshiruvlar natijasida 2 275 nafarida ekstragenital kasalliklar aniqlanib, tizimli ravishda sog‘lomlashtirildi.

Bu borada amalga oshirilgan ishlar natijasida 2 256 ayol muvaffaqiyatli sog‘lomlashtirildi. Korxona rahbariyati tomonidan ularga zarur dori-darmonlar va bepul davolanish imkoniyatlari muntazam ta’minlab kelinayotir.

Telmon Hasanov,
TSQ bosh shifokori

11-noyabr — O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni

INSON QADRI VA MEHNAT E’ZOZI YO‘LIDAGI EZGU FAOLIYAT



Kuzning so‘nggi oyi mamlakatimiz bo‘ylab o‘zgacha bir shukuh, bayramona kayfiyat bilan kirib keladi. Yurtimizda 11-noyabr kasaba uyushmalari kuni sifatida keng nishonlanishi zamirida teran hikmat va yuksak ehtirom yotibdi. Zotan, har bir jamiyatning mustahkam ustuni, xalq farovonligining asosi–halol va fidoyi mehnat qilayotgan insonlardir. Mehnatkashning huquqini muhofaza etish, uning qadrini baland tutish va ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish esa har bir hamjihat jamoaning pirovard maqsadi hisoblanadi.

Ayni shu qadriyatlarga amal qilgan korxona kasaba uyushmasi qo‘mitasi bugungi kunda 8 500 nafardan ziyod a’zoni o‘z atrofiga jipslashtirgan. Ishlab chiqarish maromini joylarda bevosita kuzatib borish, xodimlarga munosib sharoit yaratish, ularning qonuniy manfaatlarini himoyalash yo‘lida 4 ta ishlab chiqarish majmuasi va 53 ta sexda kasaba uyushmasi vakillari jamoatchilik asosida sidqidildan mehnat qilishmoqda.

Xalqimizda «Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat» degan go‘zal naql bor. Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida jamiyat xodimlari va ularning oila a’zolari salomatligini tiklash yo‘nalishida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 300 ga yaqin ishchi-xodimlar respublikamizning so‘lim go‘shalaridagi zamonaviy maskanlarda dam olib, salomatliklarini tiklab qaytishdi. Kimyogarlarning mazmunli hordiq chiqarishlari hamda dunyoqarashlarini boyitish ham doimiy e’tiborda. Yurtimizning boy tarixiy va madaniy merosi bilan tanishtirish maqsadida 320 nafar hamkasbimiz uchun turistik sayohatlar uyushtirildi. Ular respublikamizning diqqatga sazovor manzillari, tabarruk qadamjolarini ziyorat qilib, bir olam taassurot to‘plashdi.

Yosh avlod kamoloti va soha vakillarining farzandlari yozgi ta’tilni maroqli o‘tkazishi kasaba uyushmasi uchun ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Ortda qolgan mavsumda «Oftobjon» bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida 1 502 nafar mitti qalb sohiblari yayrab-quvnab, quvnoq va mazmunli hordiq chiqardilar. Mehri daryo xalqimizga xos insonparvarlik, mehr-oqibat an’analariga tayanib, yil boshidan buyon ijtimoiy ko‘makka muhtoj, ehtiyojmand oilalar va xodimlarga 278 ta oziq-ovqat mahsulotlar to‘plami beminnat yetkazib berildi. Shuningdek, turli hayotiy vaziyatlarga tushgan 902 nafar hamkasbimizga moddiy yordam ko‘rsatildi.

Zero, inson qadrini ulug‘lash va uning mehnatini e’zozlash — eng oliy fazilatdir. Kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan har bir zahmatkashga munosib mehnat va turmush sharoiti yaratish borasidagi xayrli ishlar izchil davom etadi.

Bayramingiz muborak bo‘lsin, aziz mehnat fidoiylari!

Firuza Sharipova,
muxbir

«InnoWeek–2026»

ILMIY IZLANISHLAR AMALDA

Ilm yo‘li mashaqqatli, ammo nihoyatda sharafli va hayratga to‘la jarayon. Qadimdan insoniyat tabiat sirlarini anglash, uni yangi imkoniyatlar sari yo‘naltirish uchun tinimsiz izlangan. Bugun esa ana shu izlanishlar chiroyli orzulardan hayotiy amaliyotga, ilmiy g‘oyalardan esa katta ishlab chiqarish yutuqlariga aylanib bormoqda. Ayniqsa, jamiyatimiz taraqqiyotida o‘z so‘zini aytayotgan xotin-qizlarning ilm-fan va innovatsiyalar olamidagi qadamlari har qancha tahsinga loyiq. Poytaxtimizda o‘tkazilgan «InnoWeek-2026» xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi ana shunday fidoyi va izlanuvchan qalblarning salohiyatini yaqqol yuzaga chiqardi. Uch kun davom etgan mazkur yirik anjuman ilm-fan, ta’lim va sanoatni bir nuqtaga jamlab, korxonalar hamda ilmiy muassasalar o‘rtasidagi amaliy ko‘prikni mustahkamladi. Mazkur jarayonda «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyati mutaxassislarining faol ishtiroki korxonada xodimlar tadqiqotlari uchun yaratilgan muhit va qo‘llab-quvvatlash tizimining yorqin natijasi bo‘ldi.



Xotin-qizlar ishtirokida o‘tkazilgan «Hududning eng yaxshi 100 ta innovatsion loyihalari» tanlovida jamoa vakillarining yutuqlari ko‘pchilikning e’tiborini tortdi. Xususan, «Eng yaxshi ixtiro va yangi texnik yechim» nominatsiyasida Dilafro‘z Samatovaning loyihasi yuqori baholandi. U korxonada ishlatilgan NIAP-12–05 katalizatorini qayta ishlash orqali yuqori daromadli nikel tuzlarini ishlab chiqarish texnologiyasini taklif etdi. Oddiy chiqindi hisoblangan xomashyoni qayta tayyorlash orqali iqtisodiy foyda ko‘rish mumkinligini isbotlagan bu izlanish sanoat uchun ayni muddaodir.



Yana bir e’tiborga molik natija «Eng yaxshi yashil innovatsiya» yo‘nalishida qayd etildi. Korxona xodimi Umriniso Boyevaning biokimyoviy qayta ishlash chiqindilari asosida o‘simlik urug‘larining unib chiqishini tezlashtiruvchi, tuproq degradatsiyasini kamaytiruvchi kompozitlar olish loyihasi g‘oliblar safidan joy oldi. Ekologik muvozanatni saqlashga va qishloq xo‘jaligiga ko‘maklashishga qaratilgan bunday yechimlar ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim qadam hisoblanadi.

Haftalik doirasida erishilgan kelishuvlar faqat tanlovlardagi o‘rinlar bilan cheklanib qolmadi. «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyati tomonidan Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti va Navoiy konchilik va texnologiyalar universiteti bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi. Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yo‘lga qo‘yilgan bunday aloqalar jamiyatda ilmiy yutuqlarni bevosita ishlab chiqarishga tatbiq etish, mahsulot sifatini oshirish hamda zamonaviy yechimlarni o‘zlashtirish uchun keng yo‘l ochadi.

Ilm-fan va ishlab chiqarishning o‘zaro uyg‘unlashuvi korxona kelajagini belgilovchi asosiy omildir. Kimyo sanoatida kuzatilayotgan bunday o‘zgarishlar ichki imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish bilan birga, barqaror taraqqiyot va texnologik yaxshilanish sari tashlanayotgan ishonchli qadamlardan dalolat beradi.

O‘z muxbirimiz

Ayol va jamiyat

MAS’ULIYAT EGASI

Bugungi kunda ayollarning jamiyatdagi o‘rni va turli sohalarda erishayotgan yutuqlari tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, mas’uliyatli va murakkab ishlab chiqarish hamda ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarida ularning yetakchilik qilayotgani tahsinga loyiq. Zero, haqiqiy kasbiy kamolot bir kunda shakllanmaydi, uning zamirida yillar davomida orttirilgan bilim, tinimsiz izlanish va har bir vazifaga bo‘lgan jiddiy yondashuv mujassam. Markaziy laboratoriyaning «Organik sintez, tiomochevina va polimerlanish jarayonlari tadqiqot laboratoriyasi» boshlig‘i Dilafruz O‘ktamovna Samatovaning bosib o‘tgan mehnat yo‘li ham ana shunday izchil o‘sish va yuksak matonat namunasidir.



Dilafro‘z Samatova 2003-yilda Navoiy texnika kollejini tamomlagach, o‘z faoliyatini 107-sexda 3-toifali apparatchi sifatida boshlagan. Ishlab chiqarish jarayonlarini bevosita kuzatish, texnologik operatsiyalarni chuqur o‘rganish va malakasini muntazam oshirish orqali 6-toifali apparatchi darajasigacha ko‘tarildi.

2012-yilda uning mehnat yo‘li laboratoriya sohasida davom etdi. 702-sexga laborant vazifasiga o‘tgan qahramonimiz qisqa vaqt ichida ishning o‘ziga xos jihatlarini o‘zlashtirib, 2014-yilda laboratoriya boshlig‘i o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi. Kasbiga mehr berib, ishni tashkil etish va nazorat qilish borasidagi bilim, ko‘nikmalarini yanada boyitdi.

2018-yilda 914-sex Markaziy laboratoriyasida rahbar o‘rinbosari sifatida faoliyat yuritgan mutaxassis 2019-yildan 033-sex «Suvni qayta tayyorlash va karroziyadan himoya qilish» bo‘limida muhandis-texnolog bo‘lib ish boshladi.

2020-yildan esa uning faoliyati organik sintez, tiomochevina va polimerlanish jarayonlarini tadqiq etishga yo‘naltirildi. Dastlab birinchi toifali, keyinchalik yetakchi muhandis-texnolog vazifalarida mehnat qilib, ilmiy-tadqiqot ishlarida faol qatnashdi. 2026-yilning 26-avgustidan buyon mazkur laboratoriya boshlig‘i vazifasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Ishi yuksak aniqlik, chuqur tahlil va puxta bilimni talab etadi. Bu yerda yangi turdagi mahsulotlarni sintez qilish, ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni o‘rganish va ularning ilmiy yechimini topishga qaratilgan izlanishlar olib boriladi. Dilafruz Samatova mazkur yo‘nalishda to‘plagan amaliy tajribasini boy ilmiy tadqiqot bilan uyg‘unlashtirib kelyapti.

Rivojlanishni uzluksiz ta’lim bilan hamohang olib borayotgan mutaxassis Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining sirtqi bo‘limi ikkinchi kurs talabasi. Shuningdek, joriy yilda Toshkent shahrida xotin-qizlar ishtirokida o‘tkazilgan «Women in STEM» innovatsion g‘oyalar festivalida ham munosib qatnashib, o‘z salohiyatini namoyish etdi.

Uch nafar farzandning onasi bo‘lgan qahramonimiz uchun ishdagi mas’uliyatni oilaviy vazifalar bilan uyg‘un olib borish kundalik hayotining ajralmas qismidir.

Yetuk mutaxassis boshchilik qilayotgan jamoaning ilmiy-tadqiqot ishlari bugun korxonaning ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog‘langan. O‘z sohasi jonkuyarining oddiy apparatchilikdan laboratoriya rahbarligigacha bosib o‘tgan sharafli yo‘li har qanday jamoada bilim, intilish va mehnatsevarlik orqali yuqori marralarga erishish mumkinligining yorqin isbotidir. Bilimdon ayolning oldida turgan asosiy vazifa ham ana shu izlanishlarni izchil davom ettirish, laboratoriya imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda yangi ilmiy va amaliy natijalarga erishishdan iboratdir.


O‘z muxbirimiz

Shifokor minbari

KUZDA OSHQOZON XURUJLARI XAVFI

Ko‘pchilik kuz faslining kelishi bilan oshqozon atrofidagi yoqimsiz og‘riqlar, bezovtalik va ovqat hazm qilishning buzilishiga duch keladi. Tibbiyotda gastritning aynan bahor va kuz fasllarida xuruj qilishi (o‘tkirlashishi) tez-tez kuzatiladigan holat.

Buning bir nechta asosiy tibbiy va fiziologik sabablari bor.



Jazirama yozda ratsionimiz asosan yengil ovqatlar, yangi uzilgan meva-sabzavotlar, suv va salqin ichimliklardan iborat bo‘ladi. Kuz kelishi bilan esa tanamiz tabiiy ravishda issiqroq va quvvatliroq ovqatlarni istaydi.

Odamlar yog‘li, xamirli, achchiq va sho‘r ovqatlarni ko‘proq iste’mol qila boshlaydi. Bu esa oshqozon shilliq qavatiga og‘irlik qiladi. Uy sharoitida tayyorlangan sirkali (marinadlangan) tuzlamalar va konservalar shilliq qavatni ta’sirlantiradi va me’da sharbati ajralishini kuchaytiradi.

Fasllar almashinuvi — tana uchun haqiqiy stress. Havo haroratining keskin tushib ketishi, namlikning ortishi va quyosh nuri (D vitamini) kamayishi organizmning umumiy himoya kuchini (immunitetni) susaytiradi.

Oshqozon-ichak tizimidagi foydali mikroflora balansi buziladi. Oqibatda oshqozonda yashaydigan va gastrit hamda yara kasalligini keltirib chiqaruvchi asosiy bakteriya — Helicobacter pylori faollashib, ko‘paya boshlaydi.

Kuzda kunlarning qisqarishi va sovuq havo tufayli miyada kayfiyat uchun javobgar bo‘lgan serotonin gormoni miqdori kamayadi. Inson o‘zi bilmagan holda mavsumiy stress yoki tushkunlikka tushadi. Tibbiyotda oshqozon «ikkinchi miya» deb ataladi. Nerv tizimidagi har qanday bezovtalik oshqozon tomirlarining tortishishiga (spazm), qon aylanishining yomonlashuviga va tuz kislotasining haddan tashqari ko‘p ajralib chiqishiga olib keladi.

Kuzda shamollash va mavsumiy gripp avj oladi. Insonlar shifokor retseptisiz turli og‘riq qoldiruvchi, isitma tushiruvchi va yallig‘lanishga qarshi dorilarni (masalan, aspirin, ibuprofen va boshqalarni) nazoratsiz ichishni boshlaydilar. Ushbu dori vositalari oshqozonning himoya qavatini yemirib, gastritni qo‘zg‘ashda juda katta rol o‘ynaydi. Kuzgi xurujning asosiy belgilari quyidagilardan iborat.

Oshqozonda (qovurg‘alar ostida) to‘qlik, og‘irlik yoki siqluvchi og‘riq bo‘ladi.

Kekirish va og‘izda yoqimsiz ta’m, ko‘ngil aynishi, jig‘ildon qaynashi, ishtaha susayishi va ich kelishining buzilishi. Kuzda oshqozonni himoya qilish uchun ratsionga e’tibor bering. Ovqatni juda issiq yoki sovuq holda yemang. Kuniga 4–5 mahal, oz-ozdan ovqatlanishga o‘ting. Suyuq va dimlangan taomlarga urg‘u bering. Achchiq va o‘tkir mahsulotlarni cheklab, marinadlangan tuzlamalar, dudlangan mahsulotlar va gazlangan ichimliklarni kamaytiring. Issiq va foydali ichimliklar, na’matak damlamasi, moychechak yoki yalpizli yengil choylar oshqozonni tinchlantiradi. Stressdan himoyalanish lozim. Yetarlicha uxlab, kunlik tartibga rioya qiling va ochiq havoda ko‘proq sayr muhim. Dorilarni ehtiyotkorlik bilan ichish lozim. Og‘riq qoldiruvchi vositalarni hech qachon och qoringa ichmang.

Muhim eslatma: agar og‘riqlar muntazam tus olsa va bezovtalik kuchaysa, o‘z-o‘zini davolash bilan shug‘ullanmasdan, albatta gastroenterolog shifokorga murojaat qilish va zarur tekshiruvlardan o‘tish tavsiya etiladi.

Normo‘min Qayumov,
gastroenterolog

Psixologiya

ONG OSTIDAGI SIRLAR

Biz xotiramizga ishonamiz, ko‘rganlarimiz, tayanamiz, eshitganlarimiz asosida xulosa chiqaramiz. Ammo odamzod ongi har doim ham voqelikni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilavermaydi. Ba’zan miyaning o‘zi biz sezmagan holda haqiqatning ayrim qismlarini o‘zgartiradi.

Tasavvur qiling: ikki kishi bir voqeaning guvohi bo‘ldi. Oradan bir necha kun o‘tgach, ulardan tafsilotlarni so‘rashdi. Qizig‘i shundaki, har ikkisining hikoyasi bir-biridan farq qiladi. Biri muhim deb hisoblagan jihatni ikkinchisi umuman eslay olmaydi. Hatto ayrim tafsilotlar bo‘yicha ularning xotirasi bir-biriga zid keladi.

Xo‘sh, qaysi biri haqiqatni eslayapti? Yoki inson xotirasi biz o‘ylagandek ishonchlimi?

Psixologiya va neyrobiologiyada bu holat xotiraning qayta tiklanuvchi xususiyati bilan izohlanadi. Ya’ni miya yuz bergan jarayonlarni videokamera kabi o‘zgarishsiz saqlamaydi. Eslash jarayonida inson mavjud ma’lumotlarni his-tuyg‘ulari, keyingi tajribasi va oldindan shakllangan qarashlari bilan birlashtirib, holatni qayta tiklaydi. Xotira — haqiqatning aynan nusxasi emas. Ko‘pchilik bolalikdagi o‘tmishni juda aniq eslashini aytadi. Ammo xotiradagi ayrim tafsilotlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Bunga keyin eshitilgan ma’lumotlar, boshqalarning hikoyalari va shaxsning o‘sha voqeaga nisbatan bugungi munosabati ham ta’sir qiladi. Masalan, bir hodisani yaqinimiz qayta-qayta o‘zicha hikoya qilib bersa, vaqt o‘tishi bilan uning talqini bizning es-hushimizga ham singib ketadi. Natijada o‘zimiz ko‘rgan bilan keyin eshitgan ma’lumotni farqlash qiyinlashadi. Bu xotiraning buzilishi emas, balki uning ishlash xususiyatlaridan biridir.

Miya doimiy ravishda atrof-muhitdan kelayotgan axborotni qayta ishlaydi. Axborot ko‘p, vaqt esa cheklangan bo‘lgani uchun u ayrim vaziyatlarda tezkor xulosa chiqarishga yordam beradigan fikrlash qoliplaridan foydalanadi. Psixologiyada bunday jarayonlar kognitiv og‘ishlar deb ataladi.

Masalan, kimdir haqida dastlabki salbiy taassurotga ega bo‘lsangiz, keyin uning hatto oddiy harakatlarini ham shunday ma’noda talqin qilishingiz mumkin. Aksincha, o‘zi yoqtirgan insonning xatolarini sezmasligi yoki oqlashga moyil bo‘lishi ehtimol. Bu tasdiqlash og‘ishi deb ataladi. Bunda kishi mavjud qarashlariga mos ma’lumotlarga ko‘proq e’tibor beradi, ularga zid dalillarni esa ko‘pincha chetlab o‘tadi. Oddiy ko‘nikmalar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga va voqelikni xolisroq baholashga yordam beradi.

Shohsanam Yuldasheva,
psixolog

Ayol salomatligi

SHIFO VA MEHR UYG‘UNLIGI

Inson hayotidagi eng bebaho ne’mat — sihat-salomatlik. Bugungi kunda aholi salomatligini muhofazalash, tibbiy xizmatlar sifatini yangi bosqichga ko‘tarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri. Xususan, xotin-qizlar jismoniy va ruhiy xotirjamligini ta’minlash borasidagi ishlar ko‘lami kengaymoqda. Mazkur sa’y-harakatlar yirik sanoat korxonalari faoliyatida ham o‘zining amaliy ifodasini topgan.

Sharq mutafakkirlari ayolni oila chirog‘i, hayotning betakror mo‘jizasi deb ta’riflashgan. Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyoti va farovonligi bevosita onalar va opa-singillarimizning sog‘ligiga tayanadi. Korxona huzuridagi sanitariya qismida faoliyat yuritayotgan akusher-ginekologlar bu mas’uliyatni chuqur anglagan holda mehnat qilishayapti. Shunday mutaxassislardan biri Mehriniso Axmatovna Xudoyberdiyeva 1997-yildan buyon mazkur sohada faoliyat yuritib kelmoqda. U faqatgina shifokor emas, balki yuzlab xotin-qizlarning dardiga sherik bo‘lib, ularga hayotiy maslahat va ruhiy ko‘mak beruvchi tayanchdir.

— «Jamiyatimizda mehnat qilayotgan uch mingdan ortiq nazokat sohibalarining salomatligini



nazoratda ushlash bizning burchimizdir," — deydi tajribali shifokor M. Xudoyberdiyeva. — "Ma’lumki, har qanday xastalikni davolagandan ko‘ra uning oldini olgan afzal. Shu bois profilaktik ko‘riklarni muntazam tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan. Joriy yil boshidan buyon minglab tug‘ish yoshidagi ayollar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, aniqlangan muammolar bartaraf etildi. Shuningdek, homilador ayollarimiz alohida e’tiborga olinib, ularning xavfsizligi qat’iy nazorat ostida. Shifokor uchun bemorning sog‘ayishi eng oliy mukofotdir."

Tibbiyot muassasasining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablar asosida yangilangani davolash jarayonining samaradorligini ta’minladi.

Statsionar ginekologi V. Sh. Majitovaning ta’kidlashicha, bemorlarga o‘ta ehtiyotkorlik bilan yondashish, har bir inson taqdiriga mas’uliyat bilan qarash talab etiladi:

— «Mazkur yil mobaynida ayollar salomatligini tiklash yo‘nalishida ko'plab murakkab, yuqori texnologiyali ginekologik jarrohlik amaliyotlari bajarildi. Ma’lumki, sog‘lom ayol jamiyatning mustahkam o‘zagidir. Jismonan tetik insongina hayotdan zavqlanib yashaydi, kelajakka ishonch bilan qadam qo‘yadi. Bizning vazifamiz — bu jarayonni o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash va xotin-qizlarga jahon standartlariga mos tibbiy xizmat ko‘rsatish."

Kishi boshi sinovlarga tushgandagina salomatlik va yashash baxtining asl qadrini chuqurroq his qiladi. Og‘ir damlarda dardiga malham izlab kelgan har bir xodim oq xalatli mutaxassislarning samimiy munosabatidan quvvat oladi. O‘z kasbiga sadoqatli, oqko‘ngil shifokorlarning insoniy fazilatlari va kasbiy mahorati bugun minglab ayollarning yuziga tabassum, qalbiga xotirjamlik bag‘ishlayotir.

Firuza Sharipova,
muxbir

101 xizmati

ENERGIYA RESURSLARIDAN XAVFSIZ VA OQILONA FOYDALANAYLIK!

Bugungi kunda tabiiy gaz, elektr energiyasi, ko‘mir va boshqa yoqilg‘i turlari kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu manbalar xonadonlarimizga issiqlik, yorug‘lik va qulaylik bag‘ishlaydi. Biroq ulardan foydalanishda beparvolikka yo‘l qo‘yish, belgilangan xavfsizlik talablariga amal qilmaslik nafaqat mol-mulkka zarar yetkazishi, balki inson hayoti va salomatligiga ham jiddiy tahdid soladi.

Shu bois energiya resurslaridan foydalanishda qoidalarga qat’iy rioya etish, ehtiyot choralarini ko‘rish va mavjud xavflarning oldini olish har bir



fuqaroning kundalik hayotdagi muhim mas’uliyati bo‘lishi lozim.

Tabiiy gaz yuqori darajada yonuvchan va portlash xavfiga ega bo‘lgan energiya manbaidir. Undan noto‘g‘ri foydalanish yoki gaz jihozlarining texnik nosozligi og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Eng avvalo, gaz quvurlari va uskunalaridagi nosozliklar, ulanish nuqtalarining zich yopilmagani gaz sizib chiqishiga, bu esa yong‘in yoki portlash xavfining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Yana bir jiddiy xavf — is gazidan zaharlanish. Gaz yoqilg‘isi chala yonganda hosil bo‘ladigan is gazi rangsiz va hidsiz bo‘lib, inson hayoti uchun o‘ta xavfli hisoblanadi. Uning sezilmasligi esa zaharlanish xavfini oshiradi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun quyidagi xavfsizlik talablariga amal qilish zarur!

Gaz plitalari, isitish qozonlari va boshqa gaz jihozlarini faqat malakali mutaxassislarga o‘rnattirish va ta’mirlatish, ayniqsa, kuz-qish mavsumida xonadonlarni muntazam ravishda shamollatib turish kerak.

Mo‘ri va ventilyatsiya kanallarining sozligi hamda tozaligini doimiy nazorat qilish, gaz jihozlaridan foydalanishda xavfsizlik yo‘riqnomalariga qat’iy amal etish joiz.

Agar xonada gaz hidi sezilsa, elektr jihozlarini yoqish yoki o‘chirish, ochiq olovdan foydalanish mumkin emas. Imkon qadar xavfsiz tarzda gaz ta’minotini to‘xtatish, eshik va derazalarni ochib, binodan chiqish hamda tashqarida turib 104 raqami orqali avariya gaz xizmatiga xabar beriladi..

Elektr energiyasidan foydalanishda muhim talablar mavjud.


Tok ko‘zga ko‘rinmaydi, ammo uning oqibatlari nihoyatda xavfli. Qoidalarga beparvolik bilan munosabatda bo‘lish qisqa tutashuv, yong‘in va elektr toki urishi kabi ko‘ngilsiz holatlarni keltirib chiqaradi.

Xususan, eskirgan yoki sifatsiz simlar, nosoz rozetkalar, elektr tarmog‘ining ortiqcha yuklanishi, shuningdek, bir rozetkaga bir vaqtning o‘zida bir nechta yuqori quvvatli maishiy texnika vositalarining ulanishi yong‘in xavfini oshiradi.

Bundan tashqari, izolyatsiyasi shikastlangan simlarga tegish yoki elektr jihozlaridan nam qo‘l bilan foydalanish inson hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi.

Bunday baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida foydalanilmayotgan elektr jihozlarini tarmoqdan uzib qo‘yish, eskirgan elektr simlari va nosoz rozetkalarni o‘z vaqtida almashtirish, tarmoqni ortiqcha yuklanishdan asrash, elektr jihozlariga nam qo‘l bilan tegmaslik kerak.

Bolalar xavfsizligini ta’minlash maqsadida himoya



qopqoqli rozetkalardan foydalanish, uskunalarini ta’mirlash ishlarini malakali mutaxassislarga ishonib topshirish tavsiya etiladi.

Xavfsizlik — har birimizning mas’uliyatimiz!

Energiya resurslaridan tejamkor, oqilona va xavfsiz foydalanish faqat iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash bilan cheklanmaydi. Bu, eng avvalo, o‘z hayotimiz, oilamiz a’zolari va atrofdagilar xavfsizligini asrashning muhim shartidir.

Unutmaylik, xavfsizlik qoidalariga amal qilish — shunchaki talab emas, balki har bir kishining hayoti va salomatligi uchun mas’uliyatli munosabatidir. Oddiy ehtiyot choralari orqali ko‘plab baxtsiz hodisalarning oldini olish, yong‘in va portlash xavfini bartaraf etish mumkin.

Zero, xavfsizlikka loqayd bo‘lmaslik — hayotga befarq bo‘lmaslikdir!

Hamid Salimov,
«Navoiyazot» AJ OFVB inspektori

DOIMO XUSHYOR BO‘LAYLIK!

Bugungi kunda soha yo‘nalishida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, yong‘in xavfsizligi xodimlari tomonidan joylarda turli targ‘ibot-tashviqot tadbirlari amalga oshirilmoqda. Ushbu uchrashuvlarning asosiy maqsadi aholi o‘rtasida yong‘in xavfsizligi qoidalarini keng targ‘ib qilish, fuqarolarning bu boradagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda yong‘inlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirishdan iborat.



Shuni alohida ta’kidlash joizki, xavfsizlikni ta’minlash va olov bilan kurashish nafaqat yong‘in-qutqaruv xizmati xodimlarining, balki har bir fuqaroning burchi. «O‘z uyingni o‘zing asra!» degan hayotiy shior barcha uchun birdek muhimdir.

Shu bois, fuqarolarni yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya etishga chaqiramiz. Jumladan, ochiq olovdan foydalanishda ehtiyotkorlik choralarini ko‘rish, elektr va gaz jihozlarini doimo soz holatda saqlash, qo‘lbola elektr isitish moslamalari va boshqa xavfli qurilmalardan foydalanmaslik, belgilangan maxsus joylardan chekish lozim.

Ushbu oddiy, ammo muhim qoidalarga kundalik hayotda amal qilish orqali yillar davomida to‘plangan mol-mulkimizni, uy-joyimizni asrab qolishimiz, eng muhimi, o‘zimiz va yaqinlarimiz hayotini saqlashimiz mumkin.

Yong‘in xavfsizligi masalasida farzandlar tarbiyasiga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Ularga yoshligidan olov bilan ehtiyotsiz munosabatda bo‘lishning ayanchli oqibatlarini tushuntirish, xavfsizlik qoidalariga amal qilishni o‘rgatish ota-onaning muhim vazifasidir. Farzandlarimizga beradigan hayotiy saboqlarimiz ularning kelajakda sog‘lom, barkamol va mas’uliyatli insonlar bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hech bir ota-ona bilbandini hayoti xavf ostida qolishini istamaydi. Ammo yong‘in — bir necha soniya ichida inson hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ofatdir. Afsuski, yong‘in xavfsizligi qoidalariga beparvolik va loqaydlik bilan munosabatda bo‘lish oqibatida ko‘plab noxush hodisalar, insonlar o‘lim bilan bog‘liq fojialar yuz bermoqda.

Bunday ko‘ngilsizliklarning oldini olish esa, avvalo, har birimizning hushyorligimiz, mas’uliyatimiz va xavfsizlik qoidalariga amal qilishimizga bog‘liq.

Aziz yurtdoshlar! Yong‘in xavfsizligi qoidalariga doimo rioya qilaylik, o‘zimiz, oilamiz va atrofimizdagilarni ehtimoliy xavf-xatarlardan asraylik. Yong‘indan keyin oqibatlarni bartaraf etishdan ko‘ra, uning oldini olish afzal ekanini hech qachon unutmaylik!

Obidjon Xusenov,
«Navoiyazot» AJ OFVB inspektori

NAVOIY KIMYOGARI
Ta’sischi: «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyati.

Gazeta 2 haftada bir marta — juma kunlari o‘zbek tilida tayyorlanadi.
Matbuot xizmati rahbari bilan bog‘lanish: @Navoiyazot_AJ_Press

«Navoiyazot» AJ matbuot xizmati rahbari: Gulchehra RAJABOVA
Ushbu son uchun mas’ul: Firuza SHARIPOVA
Dizayner: Farhod BOTIROV

Gazeta «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyati matbuot xizmati tomonidan tayyorlandi.
Topshirildi — 13:00